TA’LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI: AMALIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНКА ТРУДА: РАЗВИТИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ

Материалы международной научно-практической конференции

EDUCATION AND LABOR MARKET INTEGRATION: DEVELOPING PRACTICAL SKILLS

Materials of the International scientific and practical conference



BUXORO - 2026-yil, 22-iyun

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
BUXORO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI
MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

TA’LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI: AMALIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНКА ТРУДА: РАЗВИТИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ

Материалы международной научно-практической конференции

EDUCATION AND LABOR MARKET INTEGRATION: DEVELOPING PRACTICAL SKILLS

Materials of the International scientific and practical conference

“KAMOLOT” nashriyoti
BUXORO - 2026-yil, 22-iyun

INKLUZIV TA’LIM: TENG IMKONIYATLAR

N.X. Aslanova
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari
kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Maqolada inklyuziv ta’lim tizimida Ta’limning universal dizayni (TUD) tamoyillari asosida o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim muhiti, "Besh soha" modeli, kuzatish va talqin metodikasi hamda turli yo‘llar bilan jalb etish, taqdim etish va ifodalash strategiyalarining ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, Ta’limning universal dizayni, TUD, amaliy ko‘nikmalar, inklyuziv pedagogika, kollaborativ ta’lim, differensial yondashuv, UDL, Besh soha modeli.*

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические основы формирования практических навыков учащихся на основе принципов Универсального дизайна обучения (Universal Design for Learning) в условиях инклюзивного образования. Анализируются значение модели «Пять сфер», методики наблюдения и интерпретации, а также стратегий множественного вовлечения, представления и выражения учебной деятельности.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, универсальный дизайн обучения, практические навыки, дифференцированный подход, коллаборативное обучение, инновационные педагогические технологии.*

Abstract. *This article discusses the pedagogical foundations of developing practical skills through the principles of Universal Design for Learning (UDL) in inclusive education. It analyzes the importance of the “Five Domains” model, observation and interpretation strategies, and multiple means of engagement, representation, and expression.*

Keywords: *inclusive education, Universal Design for Learning, practical skills, inclusive pedagogy, differentiated instruction, collaborative learning, innovative educational technologies.*

Dinyoviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash va uning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay pedagogik muhit yaratishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim va Ta’limning universal dizayni (TUD) tamoyillari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki madaniy farqlaridan qat’i nazar, ularning sifatli ta’lim olishini ta’minlashga xizmat qiladi.

TUD yondashuvi ta’lim jarayonini oldindan shunday loyihalashni nazarda tutadiki, bunda o‘quv materiallari, metodlar va baholash vositalari barcha o‘quvchilar uchun mos va qulay bo‘ladi. Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi o‘quvchini o‘zgartirish emas, balki ta’lim muhitini o‘quvchi ehtiyojiga moslashtirishdir.

Inklyuziv ta’lim amaliyotida o‘quvchini baholashda "kuzatish" va "talqin" tushunchalarini farqlash muhim hisoblanadi. Ko‘pincha "o‘quvchi dangasa", "darsga qiziqmaydi" yoki "faol emas" kabi subyektiv xulosalar chiqariladi. Aslida esa bunday fikrlar kuzatish emas, balki talqin natijasidir. TUD yondashuvi avvalo kuzatilayotgan xatti-harakatning asl sababini aniqlashni tavsiya etadi.

Masalan, o‘quvchi topshiriqni bajarmayotgan bo‘lsa, bu uning motivatsiyasi pastligidan emas, balki topshiriqni tushunmagani, eshitish yoki ko‘rish bilan bog‘liq qiyinchiliklari, yozish ko‘nikmalarining sust rivojlanganligi yoki hissiy zo‘riqish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

TUD metodologiyasida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tahlil qilish uchun "Besh soha" modeli tavsiya etiladi. Ushbu model quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: idrok, regulyasiya, asos ko‘nikmalar, mazmun va ifoda.

- ✓ **Idrok** – o‘quvchining ma’lumotni ko‘rish, eshitish va qabul qilish imkoniyatlari;
- ✓ **Regulyasiya** – diqqatni jamlash, his-tuyg‘ularni boshqarish va o‘zini nazorat qilish qobiliyati;
- ✓ **Asos ko‘nikmalar** – o‘qish, yozish va hisoblash kabi fundamental akademik kompetensiyalar;

✓ **Mazmun** – o‘quv materialining mohiyatini tushunish va uni oldingi bilimlar bilan bog‘lay olish;

✓ **Ifoda** – o‘quvchining o‘z bilimini yozma, og‘zaki yoki amaliy shaklda namoyon eta olish qobiliyati.

Mazkur model asosida o‘qituvchi o‘quvchining qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlaydi va unga mos pedagogik yordamni tashkil etadi.

TUDning asosiy tamoyillari uch yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quvchilarni **turli yo‘llar bilan jalb etish**;
2. O‘quv materiallarini **turli usullarda taqdim etish**;
3. O‘quvchilarga o‘z bilimini **turli shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratish**.

Masalan, o‘qituvchi bir xil topshiriqni bajarishda o‘quvchilarga tanlov berishi lozim: javobni yozish, rasm chizish, plakat tayyorlash yoki og‘zaki bayon etish. Bu esa turli qobiliyat va ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Shuningdek, darslarda "o‘yla – juftlikda muhokama qil – sinf bilan bo‘lish", "Pazzl", loyiha usuli, grafik organayzerlar, Frayer modeli, B.B.B jadvali kabi metodlardan foydalanish o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash va amaliy muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ta’lim muhitining tashkil etilishiga bog‘liq. TUD tavsiyalariga ko‘ra, sinf xonasi yorug‘ligi, akustikasi, havo sifati, mebellarning moslashuvchanligi, o‘quvchilar uchun alohida va guruh bo‘lib ishlash zonalarining mavjudligi ularning ta’lim faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘quvchilarga tanlov imkoniyatlarini yaratish, ular uchun qulay muloqot vositalarini taqdim etish, yordamchi texnologiyalar va vizual materiallardan foydalanish amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni his etish va ijtimoiy moslashuv kompetensiyalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ta’limning universal dizayni tamoyillariga asoslangan inklyuziv ta’lim amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. "Besh soha" modeli, kuzatish va talqin metodikasi, shuningdek, o‘quvchilarni turli yo‘llar bilan jalb etish, taqdim etish va ifodalash strategiyalaridan foydalanish har bir bolaning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga yordam beradi.

Inklyuziv ta’limda asosiy maqsad – barcha o‘quvchilar uchun bir xil emas, balki adolatli va ehtiyojga mos ta’lim sharoitlarini yaratishdir. TUD tamoyillarining amaliyotga joriy etilishi o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi, amaliy faoliyati, kommunikativ kompetensiyasi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga hamda zamonaviy ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot

1. CAST. Universal Design for Learning Guidelines 3.0. Wakefield, MA, 2024.
2. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. Paris, UNESCO.
3. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring Inclusive Pedagogy // British Educational Research Journal. 2011.
4. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-trening materiallari: “Handouts For Day 1 25-26 th of May, 2026”.
5. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-trening materiallari: “Handouts for Day 2, 25-26 th of May, 2026”.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNING MAQSADI VA UNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Klishov Kadirbay Uzaqbaevich
Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi
Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda O‘zbekiston xalq ta’limi tizimida jadal rivojlanib borayotgan inklyuziv ta’lim tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va umumta’lim maktablarida joriy etilishining bosh maqsadi tadqiq qilingan. Muallif alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari muhitiga moslashtirish, ularning huquqiy kafolatlarini ta’minlash hamda jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllantirish masalalarini tahlil etadi. Shuningdek, maqolada maktab muhitida inklyuziv ta’limni tashkil etishdagi mavjud muammolar, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va tizimni takomillashtirishga qaratilgan amaliy taklif hamda tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, integratsiya, umumta’lim maktabi, teng huquqlilik, differensial yondashuv, moslashuv, ijtimoiy reabilitatsiya.*

Аннотация. *В данной статье исследуется понятие инклюзивного образования, которое сегодня стремительно развивается в системе народного образования Узбекистана, его суть и содержание, а также основная цель внедрения в общеобразовательных школах. Автор анализирует вопросы адаптации детей с особыми образовательными потребностями к среде здоровых сверстников, обеспечения их правовых гарантий и формирования в качестве полноценных членов общества. Также в статье изложены существующие проблемы в организации инклюзивного образования в школьной среде, профессиональная подготовка учителей и практические предложения и рекомендации, направленные на совершенствование системы.*

Ключевые слова*: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, интеграция, общеобразовательная школа, равноправие, дифференцированный подход, адаптация, социальная реабилитация.*

Abstract. *This article examines the concept of inclusive education, which is rapidly developing today within the public education system of Uzbekistan, its essence and content, as well as the primary goal of its implementation in general education schools. The author analyzes the issues of adapting children with special educational needs to the environment of healthy peers, ensuring their legal guarantees, and forming them as full members of society. Also, the article outlines the existing problems in organizing inclusive education in the school environment, professional training of teachers and practical proposals and recommendations aimed at improving the system.*

Keywords: *inclusive education, special educational needs, integration, general education school, equality, differentiated approach, adaptation, social rehabilitation.*

XXI asr jahon ta’lim hamjamiyati oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — inson qadri, huquqlari va imkoniyatlar tengligini ta’minlashdir. Ta’lim barcha uchun ochiq va tushunarli bo‘lishi lozim degan tamoyil xalqaro miqyosda (Salamanka deklaratsiyasi, Incheon deklaratsiyasi) tan olingan. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, imkoniyati cheklangan va alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni jamiyatdan ajratmagan holda, umumta’lim maktablariga integratsiya qilish masalasiga davlat darajasida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida inklyuziv ta’limga alohida huquqiy maqom berilishi, shuningdek, sohaga oid qator Prezident farmon va qarorlarining qabul qilinishi ushbu tizimning huquqiy poydevorini yaratdi. Biroq, tizimni shunchaki joriy etish etarli emas; umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limning asl maqsadi nima ekanligini anglash, uni amaliyotga to‘g‘ri tatbiq etish metodologiyasini ishlab chiqish bugungi kun pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni tashkil etishning fundamental maqsadlarini aniqlash, uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini ochib berish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

1. Inklyuziv ta’lim tushunchasining konseptual asoslari

Inklyuziv ta’lim (fransuzcha *inclusif* – o‘z ichiga oluvchi, lotincha *include* – xulosa qilaman, ichkariga kiritaman) — bu barcha bolalarning, shu jumladan, jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, til yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, o‘z tengdoshlari bilan birgalikda

	QO‘LLASHNING AHAMIYATI	
Ulug‘bek Aslonov	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	189
Odinayeva Mavluda Kobilovna	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY KO‘NIKMALAR, IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH	192
Rajabova Kimyoxon Farmonovna	TA’LIM INTEGRATSIYALASHUVIDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	196
Jo‘rayeva Gulandom Murodullo qizi	O‘QUVCHILAR JAMOASIDAGI VERBAL AGRESSIYANI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA PROFILAKTIKA QILISHDA TARBIYA DARSLARINING AHAMIYATI	201
Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi	BOSHLANG‘ICH TA’LIM YANGI AVLOD DARSLIKLARINING AMALIYOTGA YO‘NALTIRILGANLIGI	204
Alimova Shaxlo Bafaevna	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA AMALIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI	206
Alimova Shaxlo Bafaevna	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA HUQUQIY TA’LIMNI SINFLAR KESIMIDA TASHKIL ETISHNING METODIK ASOSLARI	208
Xakimov Shuxrat Shodiyevich	TA’LIMDA INKLYUZIV YONDASHUVLAR – DAVR TALABI	213
Рахмонова Гуллола Шавкатовна	ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	217
G. O. Ochilova	INKLYUZIV GURUHLARDA SAMARALI PEDAGOGIK METODLAR, INTERFAOL VA KO‘RGAZMALI YONDASHUVLAR	219
G. O. Ochilova	O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIM: PEDAGOGLARNI TAYYORLASH, TEXNIK BAZANI YAXSHILASH VA XALQARO TAJRIBA ALMASHINUVI	222
Muxidov Asqar Raxmatovich	IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA AMALIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA VIRTUAL (VR) VA KENGAYTIRILGAN BORLIQ (AR) TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI	226
N.X. Aslanova	INKLUZIV TA’LIM: TENG IMKONIYATLAR	229
Klishov Kadirbay Uzaqbaevich	UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNING MAQSADI VA UNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI	230
Jiemuratov Qoblan	INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA AUTIZM SPEKTRI BUZILISHI VA INTELLEKTUAL YETISHMOVCHILIGI BO‘LGAN BOLALARNI O‘QITISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI	235
Jiemuratov Qoblan	TA’LIM MUASSASALARIDA AQLI ZAIF BOLALARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH	239